



## Navoiy viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-may dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 369 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 8 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 361 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 5 731,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 109,1 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 516,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 132,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5 215,0 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 404,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,6 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo


## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 489 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 487 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 850,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 9,9 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 457,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 78,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Navoiy shahri (125,0 %), Karmana tumani (107,0 %) kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)


### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyun holatiga umumiyligi ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 130 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 127 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-may oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 250,8 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.



### **Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**



#### **IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatalidi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### **V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi ion boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

<b>Chop etishga masul:</b> Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	<b>Bo'lim boshlig'i:</b> O.Eshtilavov Tel: +998792235043	<b>Ijrochi:</b> Sh.Aliqulov Tel: +998792235043 e-pochta: nv@navstat.uz	<b>Manzil</b> 210100, Navoiy sh., Amir Temur ko'chasi, 4-uy
---	--	--	--